
Amaliy o'quv-seminar bo'lib o'tdi

Qo'shtepa tumanidagi 18-davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini pandemiya sharoitida bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish" mavzusida amaliy o'quv-seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari A.Yusupov, tuman sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi va tibbiyot birlashmasi xodimlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari ishtirok etdilar.



O'quv-seminar davomida pandemiya sharoitida MTTlardagi ish jarayonlari qanday tashkillashtirilishi haqida so'z yuritildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-09-14 10:44:56